



FILALOGIYANING RIVOJLANISH TARIXI

Xolmurodov Davron- O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti. Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 4 kurs talabasi.

Annotatsiya: Filologiya - bu insoniyatning madaniy merosini, ayniqsa, til va adabiyot orqali o'rganadigan fan. Uning tarixi qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi, chunki odamlar har doim o'z tillarini va yozma yodgorliklarini o'rganishga qiziqishgan. Qadimgi davrlarda filologiya asosan matnlarni tahlil qilish, ularni sharhlash va saqlash bilan bog'liq edi. Masalan, qadimgi Misrda ierogliflarni o'rganish, qadimgi Yunonistonda Homer asarlarini tahlil qilish va qadimgi Xitoyda Konfutsiy ta'limotlarini o'rganish filologiyaning ilk namunalari hisoblanadi. O'rta asrlarda filologiya diniy matnlarni o'rganish va ularni tarjima qilish bilan bog'liq edi. Masalan, islom olamida Qur'onni o'rganish, Yevropada esa Injilni tahlil qilish va tarjima qilish filologiyaning muhim yo'nalishlari edi.

Kalit so'zlar: Filologiya, so'z, til, xalq, filolog, asr, fan, asar, muallif.

Kirish.

Filologiya qadimgi **Yunonistonda** paydo bo'lgan bo'lib, dastlab "**so'zga muhabbat**" ma'nosini anglatgan. Qadimgi yunon filologlari **Homer** asarlarini tahlil qilish orqali matnlarni o'rganishga asos solganlar. Keyinchalik, filologiya Rim imperiyasida, o'rta asrlarda esa arab dunyosida rivojlandi. Uyg'onish davrida Yevropada filologiya fan sifatida qayta tiklandi va keng tarqaldi. Filologiya – bu insoniyatning boy madaniy merosini o'rganishga bag'ishlangan, qadim-qadimdan shakllangan fan sohasidir. U til, adabiyot va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganish orqali insoniyatning ma'naviy olamini tushunishga intiladi. Filologiya nafaqat matnlarni tahlil qilish, balki ularning tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstini ham chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu fan insoniyatning o'tmishini, bugungi kunini va kelajagini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Filologiya orqali biz o'tmish sivilizatsiyalari, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va an'analari haqida



ma'lumot to'playmiz. Bu esa bizga o'z madaniyatimizni yanada chuqur anglash va boshqa madaniyatlar bilan muloqot qilish imkonini beradi. [Hojiyev, 2001. 120].

Filologiya ta'limi talabalarga nafaqat nazariy bilimlar beradi, balki ularda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, muloqot qilish va ilmiy tadqiqot olib borish kabi muhim ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Bu ko'nikmalar talabalarga turli sohalarda, jumladan, ta'lim, nashriyot, ommaviy axborot vositalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va madaniy merosni saqlash sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi. Shunday qilib, filologiya – bu nafaqat ilmiy faoliyat, balki insonning ma'naviy kamolotiga ham xizmat qiladigan, insoniyatning boy madaniy merosini o'rganish va saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qiziqarli va keng qamrovli fandır. [Begmatov, 1991. 124].

Filologiya amaliy jihatdan bir necha sohalarda qo'llaniladi:

Tarixiy va madaniy tadqiqotlar: Filologiya tilning tarixi va uning o'zgarishlarini o'rganish orqali, eski davrlar va madaniyatlar haqida aniq va chuqur ma'lumotlar olishga yordam beradi. Misol uchun, qadimgi yozuvlar va matnlarni tahlil qilish orqali o'sha davrlarning ijtimoiy va siyosiy holatini o'rganish mumkin.

Til va madaniyatni saqlash: Filologiya xalqning tilini, adabiyotini, urf-odatlarini va madaniyatini asrab-avaylashga yordam beradi. U o'ziga xos til va adabiyotlar orqali milliy identitetni saqlashni ta'minlaydi.

Leksikografiya va lug'at yaratish: Filologiya lug'atlarni yaratishda, yangi so'zlar va iboralarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu soha tilni rivojlantirish, uning bog'lanishlarini aniqlash va tilni ilmiy jihatdan tahlil qilishda amaliy ahamiyatga ega. **O'qituvchilik va tarjima:** Filologiya tili o'rgatishda, tarjimonlikda, hamda boshqa tilshunoslik faoliyatlarida qo'llaniladi. O'quvchilarni tilni to'g'ri ishlatishga o'rgatishda, filologiyaning ilmiy asoslari muhimdir.

Psixologiya va ijtimoiy munosabatlar: Til inson fikrlashining asosi bo'lib, filologiya tili orqali psixologik va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Tilning shakli va tuzilishi odamning ongida qanday aks etishi va shu orqali



ijtimoiy, psixologik munosabatlar qanday rivojlanishini o'rganish mumkin. Bu, xususan, psixoterapiya, ta'lim va pedagogik jarayonlarda muhimdir.

Media va kommunikatsiya: Filologiya media va kommunikatsiya sohalarida ham katta rol o'ynaydi. Til va nutqning qanday ishlatilishi, ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlarni qanday taqdim etish va odamlarni qanday ta'sir qilishini o'rganish, filologiyaning amaliy jihatlaridan biridir. Masalan, reklama, jurnallistikada tilning o'zgarishlari va strategiyalari, tilni manipulyatsiya qilish metodlari o'rganiladi.

Turizm va xalqaro aloqalar: Filologiyaning yana bir amaliy jihati bu turizm va xalqaro aloqalarda til va madaniyatni yaxshiroq tushunishdir. Filologik bilimlar til o'rganish va tarjima qilishda, madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega. Turistlar va chet ellik mehmonlar bilan muloqotda bo'lishda filologik bilimlar madaniy va tilshunoslikni to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Yozma va og'zaki nutqni shakllantirish: Filologiya, shuningdek, nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Yozma va og'zaki nutqni shakllantirish, ularni to'g'ri va samarali tarzda ifodalashda filologik bilimlarning ahamiyati katta. Bu, o'z navbatida, odamlarning o'zaro muloqotini yaxshilash va ularning fikrini aniq va to'g'ri ifodalashda yordam beradi. [Jamolxonov, 2005. 180]

Qadimgi dunyo filologiyasi.

Qadimgi Misr va Mesopotamiya:

Qadimgi Misr ierogliflari va Mesopotamiya mixxatlari o'qilishi filologiyaning dastlabki ko'rinishlaridan edi. Matnlarni tushunish, sharhlash va saqlash filologik faoliyatning asosiy vazifasi bo'lgan. Qadimiy shumerlar, akkadlar va misrliklar o'zlarining yozuvlarini o'rganish orqali filologiyaning dastlabki bosqichlarini yaratdilar.

Qadimgi Sharq.

Yaqin Sharqdagi qadimiy yuksak taraqqiy etgan madaniyatlar filologiyadan deyarli bexabar bo'lgan, o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ham unga yetarlicha e'tibor berilmagan; ayni paytda filologiya falsafaning vatani, qadimgi Hindiston va



Yunonistonda soʻz va nutq ustida fikrlash, uni taxlil qilish tarzida, falsafa bilan uygʻunlikda paydo boʻlgan. Falsafadagi mavhumlikka intilish bilan filologiyaning aniqliği, konkretliği oʻrtasida keyinchalik roʻy bergan ixtiloflarga qaramay, falsafa va filologiyaning dastlabki yaxlitliği, bir butunliği tasodifiy boʻlmagan: filologiyaning yuksalish, oʻta rivojlanish davrlari koʻpincha gnoseologik tafakkurning buyuk davrlaridan (masalan, ellinistik dunyoda — Aristoteldan, 17-asrda Yevropada — R. Dekartdan, 19-asrda Germaniyada — I. Kantdan) soʻng roʻy bergan.

Hind filologiyasi Panini (miloddan avvalgi 5—4-asrlar), Patanjali (miloddan avvalgi 2-asr) kabi grammatistlarni, keyinchalik uslub nazariyotchilarini tarbiyalab yetishtiradi; Qadimgi Xitoy madaniyati oʻz filologik anʼanalariga ega boʻlgan (Lyu Se asarlari, milodiy 5—6-asrlar). Lekin Qadimgi Hindiston va Xitoyning filologik taʼlimoti, bu sohasidagi yutuqlari yangi va eng yangi davrlargacha yevropaliklarga maʼlum emas edi. Yevropa filologiyasi anʼanalari butunlay yunon manbalariga, antik dunyo filologiyasiga tayanib ish koʻrgan. Sofistlar davrida (miloddan avvalgi 5-asrning 2-yarmi — 4-asrning 1-yarmi) adabiyot sohasi nazariy poetika va filologiyaning obʼyekti boʻlish uchun noadabiy muhitdan yetarli darajada ajralib chiqadi. Sofistlardan Protagor, Gorgiy, Prodik va boshqa filologik metodlarni ishlab chiqishda katta xizmat qilganlar; yunon adabiyot nazariyasi Aristotelning „Poetika“ asari bilan yuqori bosqichga koʻtariladi. Ellinistik davrda (miloddan avvalgi 3—1-asrlar) filologiya falsafa fanidan ajralib chiqadi va mutaxassislar — Iskandariya va Pergam kutubxonachilari qoʻliga oʻtadi: ular antik mualliflarning tuzatilgan matnlarini aniqlash va sharxlash bilan shugʻullanganlar. Frakiyalik Dionisiy (taxminan miloddan avvalgi 150[^]90-yillar) soʻz turkumlarining hozirgacha ham qoʻllanib kelayotgan nazariyasini uzil-kesil ishlab chiqdi. Ilk xristianlik davri olimlaridan Origen, Iyeronim (Injilni birinchi marta lotinchaga tarjima qilgan shaxs) Injilning asl nusxasi va yunoncha tarjimasi ustida ulkan tekstologik ishlarni amalga oshirdilar. Yunon filologiyasi anʼanalari oʻzining antik holatini (mumtoz matnlarni oʻrganish va sharxlash) batamom saqlagan holda oʻrta asrlarda Vizantiyada davom



ettiriladi; Rim imperiyasi qulagandan so'ng (1453) Uyg'onish davri Italiyasi qochib kelgan olimlar tufayli Vizantiya filologiyasini meros qilib oladi. Qadimgi Rimda filologiya tilning fannatiki jihatini, imlosini o'rganadigan fannatikadan farqlanib turgan. Filologiyaning keyingi taraqqiyot bosqichi Uyg'onish davridagi Dante, Bokkachcho, Petrarka, Lorenzo Vall risolalari bilan bog'liq. Ushbu risolalarda Aristotel asarlarining haqiqiy mazmuni aniqlangan, Qadimgi Yunon va Rimlik yozuvchilarning yozma matnlari tanqidiy nuqtai nazardan o'rganilgan va sharxlangan.

Turkiy xalqlarda filologiya qadimda maxsus fan sifatida qaralmagan bo'lsada, unga oid juda ko'plab asarlar — lug'atlar, fannatikalar, adabiyotshunoslikka doir risolalar, tazkiralar, turkiy qabilalar tarixi va etnografiyasiga doir kitoblar yozilgan. Mahmud Koshg'ariy (11-asr) turkiy xalqlar madaniyati va fani tarixida alohida o'rin tutadi. U turkiy filologiya fanini yaratgan olimlardan biri va birinchisidir. Uning „Devonu lug'otit turk“ asarida bu fanning deyarli barcha sohalari yoritilgan: turkiy tillar leksikasi, fonetikasi va morfologiyasi, turkiy tillar tasnifi, turkiy xalqlarning ogzaki ijodi va boshqa Asarda, shuningdek, turkiy xalqlar etnografiyasi, toponimikasi, geografik joylashuviga oid qimmatli ma'lumotlar ham bor. M. Koshgariy tillarni qiyosiy o'rganishga ham asos solgan. O'z davri olimlari tomonidan „Jorulloh“ („Allohning qo'shnisi“) laqabini olgan Mahmud Zamaxshariy (11 —12-asrlar) Sharq fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. U falsafa, tarix, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, tilshunoslik kabi fanlarga oid 50 dan ortiq asar yaratdi. Uning „Muqaddimat uladab“ asari faqat arab tili va tilshunosligi tarixini o'rganish jihatidagina emas, balki turkiy xalqlar tillari tarixini o'rganish jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Asarning lug'at qismida arabcha so'zlarning forscha, mo'g'ulcha tarjimalari bilan bir qatorda turkiycha tarjimalari ham berilgan. Bulardan tashqari, 13—19-asrlarda nomi mashhur yoki noma'lum mualliflar tomonidan yaratilgan 10 dan ortiq bir tilli yoki ikki tilli izohli lug'atlar turkiy tillarda filologiya fanining rivojiga muayyan hissa bo'lib qo'shildi. Shuningdek, Alisher Navoiyning „Muhokamat ul-lug'atayn“, „Mezon ulavzon“,



„Majolis un-nafois“, „Tarixi muluki Ajam“ asarlari, Boburning „Muxtasar“ („Risolai aruz“) va „Boburnoma“si, Abulg‘oziy Bahodirxonning „Shajarai turk“ va „Shajarai tarokima“ kitoblari, Munis, Ogahiy, Bayoniy kabi mualliflarning tarixga oid asarlari, Shayx Ahmad Taroziyning adabiyotshunoslikka oid „Funun ulbalog‘a“ kitobi va boshqa ilmiy asarlar ham keng ma’noda filologiya fanini boyitgan.[Qo‘chqortoyev I, Isabekov B,1984. 125].

Qadimgi Yevropa.

18-asrda Germaniyada filolog I.I. Vinkelmannning „Neogumanizm“ (yangi gumanizm) nazariyasi paydo bo‘lishi sababli filologiyaning yangi davri boshlanadi. Antik dunyoning yaxlit, bir butun obrazi haqidagi masala Uyg‘onish davridagidek, hatto yanada ko‘proq ilmiy talabchanlik bilan o‘rtaga tashlanadi. Nemis filologi A. Volf „filologiya“ terminini qadimiyat, antik dunyo haqidagi fanning nomi sifatida amalga kiritadi. Bu davrda filologiya juda keng ma’noda tushunilib, nafaqat muayyan xalq tili va adabiyotini, balki tarixi, falsafasi, san’ati va hatto moddiy madaniyatini o‘rganishni ham o‘z ichiga olgan. Filologiyaning qadimgi madaniyat yodgorliklarini o‘rganuvchi, yunon va rimlik mualliflar asarlarini sharhlovchi bo‘limi keyinchalik „Klassik filologiya“ deb atalgan. 19-asrda filologiyaning boshqa fanlardan ajralish jarayoni kuchaygan edi. Nemis filologlari G. Uzener, E. Rode, U. fon Vilamovits Myollendorf va boshqalarning faoliyati natijasida qadimgi dunyo tarixi mustaqil fan tarmog‘i sifatida filologiyadan ajralib chiqadi; ayni shu davrda romantizm va boshqa goyaviy oqimlarning ta’siri ostida „Klassik filologiya“ bilan bir qatorda „yangi filologiya“ ham vujudga keldi: germanshunoslik (Aka uka Yakob va Vilgelm Grimmlar), slavyanshunoslik (A. Vostokov, V. Ganka), sharqshunoslik kabi. Shu bilan birga aka-uka Grimmlar, filologiya Dits, I. Dobrovskiy, A. Vostokov va boshqa filologlar tillarni o‘rganishning qiyosiy-tarixiy metodini ishlab chiqdilar. 18—19-asrlarda filologiyaning bir tarmog‘i sifatida turkiyshunoslik fani paydo bo‘ldi.[Iskndarova, 1999, 24].

Xulosa.



Filologiya – bu nafaqat o‘tmishni o‘rganish, balki bugungi kunni tushunish va kelajakni qurishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fandır. Uning tadqiqi va ta’limi insoniyatning madaniy merosini saqlash, yosh avlodni tarbiyalash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Filologiya o‘tmishdan saboq olib, kelajakka nazar tashlash imkonini beruvchi, insoniyatning ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi bebaho fandır. U matnlar orqali o‘tmish dunyosining sir-asrorlarini ochib beradi, insoniyatning ma’naviy olamiga sayohat qiladi. Filologiya ta’limi talabalarga tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, muloqot qilish va ilmiy tadqiqot olib borish kabi muhim ko‘nikmalarni beradi. Raqamli texnologiyalar filologiyani yanada ommabop va qulay qiladi, sotsiolingvistika va psixolingvistika kabi yo‘nalishlar tilning inson hayotidagi o‘rnini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Madaniyatlararo muloqotning kuchayishi esa filologiyaning ahamiyatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiyev A. O‘zbek tilshunosligi atamalarining izohli lug’ati. - T.: O‘qituvchi, 2001 -120 b.
2. Begmatov E. O‘zbek nutqi madaniyati asoslari. –T., O‘qituvchi. 1991. 124 bet.
3. Jamolxonov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 2005. 180 bet.
4. Qo‘chqortoyev I., Isabekov B.; Turkiy filologiyaga kirish, Toshkent, 1984. 125 bet.
5. Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 1999. -B. 24.
6. Kholmurodov D, Khakimova M. “INTERNATIONAL STANDARDS OF LANGUAGE PROFICIENCY IN ENGLISH”, - Toshkent. Milat Umidi, 2024- 509 b.
7. Kholmurodov D, Khakimova M. LINGUISTIC AND SOFTWARE OF LANGUAGE CORPUS, - Toshkent, Eurasian journal of Academic Research, 2024-102 b.



8. Kholmurodov D, Khakimova M. ADVANTAGES OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE, -Toshkent. Mediakommunikatsiya: til siyosati va madaniyat. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2024- 903 b.